Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnura Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlar.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldor Oybek Ulug'bek o'g'li, Normomina Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umiddbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Голышева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Ёдгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budget jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025)	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" ning o'rni	1617
Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxona ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



INNOVATSION INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH ORQALI XIZMAT SEKTORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI HAMDA IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Musinov Dilshod Sultanovich

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

"Real iqtisodiyot" kafedrası dotsenti v.v.b., PhD

Muallifning elektron manzili: dilshodmusinov1978@gmail.com

ORCID: [0009-0007-0604-9736](https://orcid.org/0009-0007-0604-9736)

Annotatsiya: Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanish jarayonlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishini rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy baza, infratuzilma hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatining diversifikatsiyasi, tarmoqlararo integratsiya orqali bozorni kengaytirish, mehnat bozorini rivojlantirish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda samarali boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion rivojlanish, xizmat ko'rsatish sohasi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, tarmoqlararo integratsiya, innovatsion loyihalar, diversifikatsiya, mehnat bozorini rivojlantirish, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрены процессы инновационного развития сферы услуг и основные подходы к повышению её социально-экономической эффективности. Отмечается важность разработки правовой базы, инфраструктуры, а также государственных проектов и программ, направленных на стимулирование развития сектора услуг. Кроме того, освещаются вопросы диверсификации деятельности предприятий сферы услуг, межотраслевой интеграции, расширения рынка, развития рынка труда и внедрения эффективных систем управления для реализации инновационных идей.

Ключевые слова: инновационное развитие, сфера услуг, социально-экономическая эффективность, межотраслевая интеграция, инновационные проекты, диверсификация, развитие рынка труда, цифровая трансформация.

Abstract: This article examines the processes of innovative development in the service sector and the key approaches aimed at enhancing its socio-economic efficiency. It emphasizes the importance of developing legal frameworks, infrastructure, and government-supported projects and programs to stimulate sectoral growth. The article also highlights issues such as diversification of service enterprises, intersectoral integration, market expansion, labor market development, and the implementation of effective management systems for realizing innovative ideas.

Key words: innovative development, service sector, socio-economic efficiency, intersectoral integration, innovation projects, diversification, labor market development, digital transformation.

KIRISH

Xizmat ko'rsatish sektori hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy farovonligi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanishi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari ushbu sohaga xos samaradorlikni oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Xizmat ko'rsatish sektori iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning eng dinamik tarmog'i sifatida shakllanib bormoqda, bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.



Innovatsion faoliyatni joriy etish, yangi texnologiyalarni qo'llash va xizmat ko'rsatish sohasida zamonaviy biznes-modellarni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida baholanmoqda. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida tarmoqlararo integratsiya va diversifikatsiya, innovatsion yondashuvlar hamda zamonaviy boshqaruv tizimlarini shakllantirish orqali aholi turmush darajasini va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat yalpi ichki mahsulotning asosiy tarkibiy qismlaridan biriga, balki innovatsion taraqqiyotning yetakchi omillaridan biriga aylanmoqda. Global tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishda xizmat ko'rsatish sektorining ulushi ortib bormoqda. Ayniqsa, ushbu sektorning innovatsion infratuzilma bilan uyg'unlashuvi iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xizmatlar sohasi texnologik yangilanishlarga nisbatan sezgir bo'lib, ilg'or innovatsiyalarni tez qabul qilish orqali xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion infratuzilmaning mavjudligi — ya'ni raqamli platformalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kadrlar tayyorlash tizimi va ilmiy-tadqiqot markazlarining faoliyati — xizmat ko'rsatish sektorining raqobatbardoshligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini bevosita belgilovchi omil hisoblanadi [1].

O'zbekiston sharoitida xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish va uni xalqaro raqobatga moslashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu yo'nalishdagi innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi hududlar bo'yicha nomutanosib bo'lib, bu holat xizmatlar sektori samaradorligining barqaror o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Aynan shu jihat mazkur mavzuning ilmiy va amaliy dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sektorining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion infratuzilmaning o'rni, mavjud holati, rivojlantirish istiqbollari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, sohani strategik rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanishi va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Global iqtisodiyotda xizmatlar sektori — ayniqsa, raqamli va intellektual xizmatlar — ishlab chiqarish, savdo, transport, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining asosiy tayanch omillaridan biri sifatida baholanmoqda [3].

Jahon banki va OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan chop etilgan hisobotlarda xizmatlar sohasida innovatsiyalarni joriy etish orqali samaradorlik, tezkorlik va ishonchlilik darajasining ortishi qayd etilgan. Xususan, Porter M. (1990) o'zining raqobat ustunliklari nazariyasida innovatsion infratuzilmaning mavjudligi mamlakatlar raqobatbardoshligining asosiy mezonlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [4].

Castells M. (2000) raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va bilimga asoslangan xizmatlar infratuzilmasining strategik rolini tahlil qilgan. Uning fikricha, xizmatlar sohasidagi innovatsion infratuzilma ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi bo'lib, hududlararo tafovutlarni kamaytiradi va bandlikni oshiradi [5].

O'zbekiston kontekstida esa xizmat ko'rsatish sohasi va uning raqamli rivojlanishi masalasi bo'yicha bir qator amaliy va nazariy ishlanmalar mavjud. Xususan:

M. Toirov (2021) "Xizmat ko'rsatish sohasining raqamli transformatsiyasi" mavzusidagi tadqiqotida xizmatlar sektorida raqamli infratuzilmaning mavjudligi hududiy iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qilishini ko'rsatgan [6].

G. Raxmatova (2020) "Innovatsion infratuzilma va xizmatlar eksporti" nomli ilmiy maqolasida innovatsion texnologiyalar yordamida xizmatlar sifatini oshirish orqali tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari yoritilgan [7].

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategik dasturida esa xizmatlar sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan. Shuningdek, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va ITU (Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi) tomonidan O'zbekistonda raqamli xizmatlar rivoji va innovatsion infratuzilmaning mavjud holati bo'yicha tahliliy hisobotlar e'lon qilingan. Ular hududiy farqlar, inson resurslarining salohiyati va texnologik tayyorgarlik bo'yicha muhim ko'rsatkichlarni taqdim etadi [8].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sektorida innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki ijtimoiy barqarorlik, bandlik, hududiy tenglik va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi [9, 10, 11, 12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda innovatsion infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektori raqobatbardoshligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga ta'siri o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida



kombinatsiyalashgan (mixed) yondashuv — ya'ni miqdoriy (kvantitativ) va sifatli (kvalitativ) usullarning uyg'unligidan foydalanildi. Bu yondashuv real iqtisodiy holatni chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil uchun rasmiy statistik ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategik dasturiga oid hisobotlardan foydalanildi. Xalqaro miqyosda esa Jahon banki, UNDP, ITU va OECD kabi tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazalari hamda tahliliy materiallari asos qilib olindi [13, 14].

Bundan tashqari, hududiy xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, innovatsion markazlar va IT-kompaniyalar vakillari bilan intervyular va onlayn so'rovnomalar o'tkazildi. Ushbu usullar tadqiqotga amaliy asos yaratib, innovatsion infratuzilmaning real sektordagi holatini baholash imkonini berdi.

1-jadval. Mavzuga oid tadqiqot usullari

Tahlil usuli	Qo'llanilish sababi
Ko'rsatkichlar tahlili	Xizmatlar sektoridagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (hajm, bandlik, eksport) tahlili
Innovatsion infratuzilma indeksi	Hududlar bo'yicha texnologik infratuzilma darajasi, IT parklar, raqamli xizmatlar mavjudligi asosida indeks tuzildi
Korrelyatsion tahlil	Innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari va xizmatlar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun qo'llanildi
Solishtirma tahlil	Toshkent, Namangan, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi infratuzilma va xizmatlar tahlili
Sifatli intervyular	Mutaxassislar va hududiy tadbirkorlar fikrlari asosida xizmatlar sektorining real muammolari va imkoniyatlari o'rganildi

Tadqiqot O'zbekistonning asosiy iqtisodiy-hududiy birliklari kesimida olib borilib, **2018–2024-yillar** oralig'idagi statistik va tahliliy ma'lumotlarga asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zarur infratuzilmani shakllantirish hamda huquqiy asoslarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining yanada barqaror va samarali rivojlanishiga zamin yaratadi. Innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya jarayonlari esa xizmat ko'rsatish sektorining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida ajralib turadi.

xo'jalik yurituvchi subeyklarni zarur huquqiy, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyiha va dasturlarni tayyorlash va amalga oshirish

xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining tijorat faolligi va iqtisodiy natijalarini oshirish maqsadida ularning faoliyatini diversifikatsiya qilish

xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining bozordagi boshqa xo'jalik yurituvchi sube'ktlar bilan tarmoq ichidagi (gorizontal) va tarmoqlararo (vertikal) integratsiyalashuvi.

1-rasm. Innovatsion rivojlanish asosida xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari



Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmini innovatsion klasterlarni shakllantirish orqali amalga oshirish mumkin. Bunday mexanizmni yaratish jarayoni ham gorizontal darajada (ya'ni xizmat ko'rsatuvchi korxonalar birlashmasi doirasida), ham vertikal darajada (xizmat ko'rsatish korxonalari va ular faoliyatini ta'minlaydigan turli sohalardagi mustaqil korxonalar birlashmasi orqali) tashkil etilishi mumkin. Bu esa mehnat bozorini rivojlantirish, ishsizlik darajasini pasaytirish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim va fan, sog'liqni saqlash, moliya sektori va xizmat ko'rsatishning boshqa innovatsiyaga yo'naltirilgan tarkibiy qismlariga innovatsiyalarni joriy etish orqali potensial imkoniyatlar shakllantiriladi.


Yangi moliyaviy vositalar, moliyalashtirish mexanizmlari va xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiyalarni jalb qilish dolzarbligi, eng avvalo, ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarning yetarli darajada moliyalashtirilmagani bilan izohlanadi. Bu jarayon aholi farovonligini oshirish va moliyaviy savodxonligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir [17].

Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida aynan aholi jamg'armalari sarmoyalarning salmoqli qismini tashkil etadi hamda ularga passiv daromad olish imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida ularning moliyaviy xavfsizligi va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Demak, ushbu yo'nalishni ishlab chiqishda xizmat ko'rsatish va servis sohasini innovatsion rivojlantirish uchun real iqtisodiy vaziyatga mos keladigan hamda aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Xizmat ko'rsatish sohasining zamonaviy tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish murakkab tarkibga ega bo'lib, bu holat innovatsion boshqaruv tizimi samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tegishli resurslarni, jumladan iqtisodiy va axborot resurslarini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalarni boshqarish tizimi rivojlanishini ta'minlovchi yondashuvlar va tamoyillarni inobatga olish muhim [15, 16].

Xizmat ko'rsatish sohasining fan sig'imi yuqori tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish algoritmi quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

1. Soha tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ustuvor innovatsiyalarning ro'yxatini tuzish.
2. Xizmat ko'rsatish korxonasi doirasida innovatsion loyihalar ro'yxatini shakllantirish.
3. Soha tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, loyihalarning o'zaro nisbatini baholash.
4. Yuqori samaradorlikka ega innovatsion loyihani aniqlash.
5. Aniqlangan loyiha qiymatini iqtisodiy mezonlar asosida baholash.
6. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishga ta'sir etuvchi ekzogen va endogen omillarni hisobga olgan holda, mavjud manbalar asosida iqtisodiy va axborot resurslari ro'yxatini shakllantirish.
7. Mavjud moliyaviy mablag'lar hajmiga ko'ra loyihalarning joriy etilishini baholash, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini aniqlash va istiqbolli davr uchun samaradorlikni baholash.
8. Xizmat ko'rsatish korxonalarida loyihalarni amalga oshirish uchun kalendar jadval asosida ichki bo'limlar rejasini ishlab chiqish.
9. Soha miqyosida innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy qilish bosqichini boshlash.



2-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish vazifalari



Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion rivojlanishning belgilangan yo'nalishlari atrofida loyihalar o'rtasidagi o'zaro bog'liq bo'lmagan va to'liq bo'lmagan realizatsiyani amalga oshirish korxona faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha ijobiy samaraga ega bo'lishi mumkin. Biroq bu holatda korxonaning umumiy innovatsion rivojlanishi sinergetik samaradan mahrum bo'ladi. Innovatsion loyihani realizatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilishda resurslar manbalari va yakuniy innovatsiyalar iste'molchilari tahlil qilingan bo'lishi lozim, ya'ni korxonaning tashqi muhit tahlili o'tkazilishi kerak [19, 20, 21].

Mazkur omillar bir vaqtning o'zida innovatsion loyihani realizatsiya qilish va qaror qabul qilish jarayonida hisobga olinishi kerak. Aynan shuning uchun moliyaviy va resurs ta'minotidagi mavjud cheklavlarni hisobga olgan holda, innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida ulardan foydalanishni optimallashtirish natijasida innovatsion rivojlanishning maqsad va vazifalari asosida korxonaning innovatsion faoliyatini kompleks boshqarishni amalga oshirish muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi — iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va yangi xizmat turlarini yaratish imkonini beradi.

Ayniqsa, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi hududlararo tengsizlikni kamaytirishda, bandlik darajasini oshirishda va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirishda strategik rol o'ynaydi. Biroq O'zbekistonda innovatsion infratuzilmaning hududiy nomutanosibligi, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining texnologik tayyorgarligi pastligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi ushbu jarayonni sekinlashtirayotgan asosiy omillardandir.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, davlat siyosatining tizimli yondashuvi, xususi sektor ishtirokini faollashtirish hamda ilm-fan bilan amaliyot o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali xizmatlar sektorining innovatsion rivoji va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini sezilarli darajada kuchaytirish mumkin.

Har bir viloyatda raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va IT markazlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus hududiy dasturlar qabul qilinishi zarur. Startaplar, onlayn xizmatlar va texnologik yechimlar ishlab chiqayotgan subyektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirilishi lozim. Texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar markazlarida xizmat ko'rsatish sohasi uchun innovatsion bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilishi kerak. Xizmatlar sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun davlat-xususi sheriklik (PPP) asosida IT infratuzilmasi va texnoparklarni rivojlantirish zarur. Viloyatlar kesimida xizmatlar sektorining raqamli va innovatsion rivojlanishini muntazam baholaydigan indeks va monitoring tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli farmoni (2022). Raqamli iqtisodiyot – 2030 strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Shukurov R. (2021). Raqamli transformatsiya va uning iqtisodiy o'sishdagi roli. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi ilmiy nashrlar.
3. Hasanov M. (2019). Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining rivojlanishi. Toshkent: Tadbirkorlik va iqtisodiy rivojlanish instituti.
4. Xushvaqto'v B. (2020). Xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy samaradorligi: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot akademiyasi.
5. Oripov T. (2023). Hududiy tahlil va xizmatlar sektori: O'zbekiston misolida. Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi.
6. Bekchanov S., Karimov M. (2020). Raqamli texnologiyalar va iqtisodiy samaradorlik. Toshkent: O'zbek iqtisodiyoti markazi.
7. G'afurov A. (2021). Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sektori: yangi yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston ilmiy nashrlar.
8. Pulatov M. E. (2019). On the Need and Ways of Converting Some of the Components of Goodwill Into Identifiable Intangible Assets. Indonesian Journal of Innovation Studies, 8.
9. Pulatov M. E. (2019). Conceptual Issues of Accounting of Intellectual Capital. American Journal of Economics and Business Management, 2(1), 117–123.
10. Pulatov M. (2012). System Analysis of Intellectual Property Indicators of Financial Statements. European Journal of Business and Economics, 6.
11. Pulatov M. (2016). Intellectual Property Parameters of Financial Reporting.
12. Saidahmedovich S. T., Kilichova O. Z. (sana yo'q). The Concept of Management in Enterprise Management and Its Specificity. Samarkand Institute of Economics and Service.
13. Sidorov V. A., Tursunov I. E., Sharipov T. S. (sana yo'q). Ekonomika innovatsiy: problema texnologik to'siqlar. Nazariya va metodologiya, s. 22.
14. Sultanovich M. D., Zuvaydullo X., Ulugbekovich K. D. (2023). Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Economic Growth in the Service Sector in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Business Diplomacy and Economy, 2(5), 126–133.



15. Musinov D. S., Erdonov M. E., Ibragimov A. S. (2023). Application of Digital Technologies in a Market Economy. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(2), 23–26. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/1012>
16. Sultanovich M. D. (2023). Opportunities to Create New Jobs Through the Development of the Service Sector. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(5), 113–122.
17. Musinov D. (2023). Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy o'sish omili sifatida. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(12/1).
18. Sultanovich M. D., Ug'li N. S. S. (2024). Opportunities to Ensure the Stability of the National Banking System and Apply Foreign Experience to Uzbekistan. Gospodarka i Innowacje, 43, 85–94.
19. Sultanovich M. D. (2023). Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Economic Growth in the Service Field. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 619–630.
20. Sultanovich M. D. (2023). The Main Directions of Poverty Reduction in Our Country. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 164–171.
21. Sultanovich M. D. (2023). Improving the Management System in the Context of the Development of the Digital Economy. Journal of Modern Educational Achievements, 3(3), 51–58.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>